



QORAQALPOQ RASSOMLARI IJODIDA ETNOGRAFIK AN'ANALARI VA XALQ TURMUSHINING BADIY IFODASI

Xolikova Zuxra Gaffarovna,

O'zbekiston amaliy san'at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19604247>

Annotatsiya. Ushbu maqolada tasviriy san'at asarlarining etnografik tadqiqotlar olib borishdagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, rassomlarni qoraqalpoq tasviriy san'atining rivojlanishida qo'shgan hissasi va etnografik jihatdan o'rni ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Tasviriy san'at, paleolit davri, kundalik hayoti, milliy kiyimlar, marosimlar, etnografik ma'lumotlar, kompozitsion uslublar, dezak elementlari.

Annotation. This article reveals the significance of works of fine art in conducting ethnographic research. It also highlights the contribution of artists to the development of Karakalpak fine art and their role from an ethnographic perspective.

Keywords: Fine art, Paleolithic period, daily life, national costumes, ceremonies, ethnographic information, compositional styles, decorative elements.

Kirish. Tasviriy san'at paleolit davrida insoniyat tomonidan yaratilgan eng muhim kashfiyotlardan biri bo'lib, qadim zamonlardan to hozirgi kungacha milliy madaniyatning muhim tarkibiy qismiga aylangan. Tasviriy san'atda tadqiqotchilar uchun jamiyat hayoti, urf-odatlar, an'analari va turmush tarzini aks ettirishda muhim manba hisoblanadi [2., b-56]. Ayniqsa, rassomlar etnografik mavzular doirasida turli xil ijod qilganlar. Jumladan, qoraqalpoq xalqning milliy qadriyatlar, urf-odatlar, marosimlari, kiyim-kechaklari, mehnat faoliyati hamda kundalik hayotini tasvirlash orqali ular har bir davrning ilmiy va madaniy ahamiyatini ochib berishgan. Shu jihatdan tasviriy san'at asarlari shunchaki estetik qiymatga ega bo'libgina qolmay, balki muayyan xalqning tarixiy-etnografik merosini tadqiq etishda muhim manba sifatida ham xizmat qiladi.

Etnografik mavzu tasviriy san'atda paleolit davridan mavjud. Paleolitning dastlabki davrida ov jarayonlari, insoniyatning kundalik hayoti tasvirlangan bo'lsa, keyingi davrlarda turlicha mazmun va shakllardagi tasvirlar namoyon bo'lgan [5., b-41-42]. Rassomlar ham ushbu an'analarni davom ettirib, o'z asarlarida xalq hayotining turli jihatlarini, jumladan, an'anaviy bayramlar, turli xil marosimlar, oilaviy qadriyatlar, xalq hunarmandchiligi hamda kundalik turmush tarzini tasvirlash orqali etnografik materiallarni badiiy ifoda vositalari orqali ifodalashgan. Bunday asarlar nafaqat san'at asari sifatida, balki etnologiya, tarix va madaniyatshunoslik fanlari uchun ham muhim manba vazifasini bajaradi [2, B.101] Markaziy Osiyo, xususan O'zbekiston hududida ham tasviriy san'atda etnografik mavzular muhim o'rin egallaydi. Bu hududda yashagan rassomlar o'z asarlarida xalqning turmush tarzi, milliy kiyimlari, urf-odatlar va marosimlarini tasvirlash orqali boy etnografik materiallarni yaratganlar. Ayniqsa, XX asrda qoraqalpoq professional tasviriy



san'atning rivojlanishi bir nechta rassomlarni yangi bosqichga ko'tardi [7, B.22]. Ular tomonidan yaratilgan tasviriy san'at asarlarida etnografik tadqiqotchilar uchun muhim bo'lgan qoraqalpoq xalqlari haqida muhim tasvirlar aks etgan. Bu jarayonda rassomlar milliy an'analarni saqlash, ularni badiiy talqin qilish hamda zamonaviy san'at bilan uyg'unlashtirishga intildilar. Shu sababli rassomlar ijodida etnografik mavzuning shakllanishi va rivojlanishini o'rganish muhim ilmiy ahamiyatga egadir. Ushbu mavzu tasviriy san'at orqali xalqning madaniy merosi, milliy o'ziga xosligi va tarixiy tajribasini o'rganish imkonini beradi. Mazkur maqolada rassomlar ijodida etnografik mavzuning paydo bo'lishi, uning rivojlanish bosqichlari hamda tasviriy san'at asarlarida etnografik materiallarning badiiy talqini tahlil qilinadi.

Asosiy. Tasviriy san'atda etnografik mavzuning shakllanishi jamiyat hayotini, xalqning kundalik turmushi, urf-odatlar va an'analarni badiiy tasvirlash ehtiyoji bilan bog'liq holda rivojlangan. Rassomlar o'z ijodlarida turli xalqlarning madaniy merosi, marosimlari, milliy kiyim-kechaklari, hunarmandchiligi va maishiy hayotini aks ettirish orqali etnografik materiallarni tasviriy san'at vositalari orqali ifodalaganlar. Bunday asarlar nafaqat estetik qiymatga ega, balki tarixiy va etnografik ma'lumotlarni saqlovchi muhim manba sifatida ham ahamiyat kasb etadi.

Etnografik yo'nalishdagi tasviriy san'at asarlari, ayniqsa, xalqning turmush tarzini tasvirlash orqali uning madaniy o'ziga xosligini namoyon etadi. Rassomlar milliy bayramlar, to'y marosimlari, xalq sayillari, oilaviy urf-odatlar va kundalik mehnat jarayonlarini o'z asarlarida tasvirlash orqali etnografik tafsilotlarni badiiy ifodaga aylantirganlar[3, B. 47-50]. Masalan, milliy kiyimlar, zargarlik buyumlari, uy-joy bezaklari hamda hunarmandchilik mahsulotlari tasviri orqali muayyan xalqning madaniy xususiyatlari ochib beriladi. Shu jihatdan etnografik mavzu tasviriy san'atda milliy an'analarni saqlash va ularni kelajak avlodlarga yetkazishda muhim rol o'ynaydi. Jumaniyoz Hakimovning ijodiy faoliyati qoraqalpoq amaliy rassomchiligida o'ziga xos o'ringa egadir. Uning ijodida qoraqalpoq xalqiniy kundalik hayoti, milliy liboslari hamda muqaddas marosimlar aks etgan. Rassomning “Qoraqalpoq ayollari” nomli asarida milliy libosdagi ayyollar tasviri markaziy kompozitsiyaga qo'yib chizilgan. “Qishloq hayoti” asarida esa qishloq hayotida yashaydigan oddiy odamlarning faoliyati, tabiat bilan uyg'un yashash sharoiti va an'anaviy turmush tarzining o'ziga xos jihatlari mohirona ifoda etilgan.

XX asrda professional tasviriy san'atning shakllanishi bilan etnografik yo'nalish yanada rivojlandi. Rassomlar o'z asarlarida qishloq hayoti, dehqonchilik jarayonlari, hunarmandlar faoliyati, milliy marosimlar va xalq bayramlarini tasvirlash orqali boy etnografik materiallarni yaratdilar[8, B.89-96] Tasviriy san'at asarlarida etnografik mavzuning ifodalanishi ko'pincha kompozitsiya, rang tanlovi va badiiy obrazlar orqali amalga oshiriladi. Rassomlar xalq hayotining muhim jihatlari ko'rsatish uchun ranglarning ramziy ma'nosidan, milliy bezak elementlaridan hamda an'anaviy kompozitsion uslublardan foydalanadilar. Masalan, milliy kiyimlarning rang-barangligi, naqshlar va bezaklarning xilma-xilligi rassom asarlarida xalq madaniyatining boyligini aks ettiradi [6, B.21].



Shuningdek, maishiy sahnalar tasviri orqali insonlarning kundalik hayoti, mehnati va o‘zaro munosabatlari badiiy jihatdan ifodalanadi. Qoraqalpoq tasviriy san’atining yukashida Igor Savitsky, Marat Nurmukhamedov, Alexander Volkov, Viktor Ufimtsev va Nikolay Karakhan kabi ijodkorlarning asarlarida etnografik mavzular alohida o‘rin egallaydi. Ular o‘z asarlarida qoraqalpoq xalqining urf-odatlarini, milliy kiyimlari, marosimlari va kundalik turmush tarzini tasvirlash orqali xalqning boy madaniy merosini badiiy talqin etganlar. Ayniqsa, xalq hayotiga oid sahnalar, ayollar mehnati, chorvachilik, baliqchilik va oilaviy marosimlar tasviri qoraqalpoq tasviriy san’atining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu asarlar orqali nafaqat ijodkorning badiiy mahorati, balki xalqning etnografik xususiyatlari ham yoritib beriladi.

Igor Savitsky Qoraqalpoq san’ati rivojiga katta hissa qo‘shgan ijodkorlardan biridir. U rassom va kolleksioner bilan shug‘ullangan hamda ko‘plab rassomlarning asarlarini to‘plab, ularni ilmiy jihatdan o‘rganish va saqlashga katta hissa qo‘shgan [6.2, B.18]. Uning sa’y-harakatlari natijasida Nukus shahrida Igor Savitskiy nomidagi Qoraqalpoq davlat san’at muzeyi tashkil etilgan. Bugungi kunda Markaziy Osiyodagi eng yirik san’at markazlaridan biri hisoblanadi. Ushbu muzey kolleksiyasida qoraqalpoq xalqining madaniy hayoti, an’analarini va tarixini aks ettiruvchi ko‘plab tasviriy san’at namunalari saqlab kelinmoqda.

Bundan tashqari, qoraqalpoq etnografiyasi haqida ma’lumot beruvchi ijodkorlardan biri - Marat Nurmuhamedovdir. Uning ijodida milliy hayot manzaralari va portret janri muhim o‘rin tutadi [7, B. 34-35] Uning yaratgan asarlarida inson qiyofasi orqali xalqning ruhiy olami, turmush tarzi va milliy qadriyatlarini ifodalanadi. Shuningdek, rangtasvir va grafika yo‘nalishida ijod qilgan Rafail Matevosyan ham xalq hayoti va ijtimoiy muhitni badiiy tasvirlashga jiddiy e’tibor qaratgan.

Turkiston mavzusini yoritgan rassomlar orasida Alexander Volkov, Viktor Ufimtsev va Nikolay Karakhan kabi ijodkorlarning ishlariga alohida e’tibor berish lozim. Ular chizgan tasviriy san’at namunalari O‘rta Osiyo xalqlarining kundalik hayoti, mehnati va madaniy muhitini tasvirlash orqali hududning etnografik o‘ziga xos xususiyatlarini san’at asarlarida aks ettirganlar. Ularning ko‘plab asarlarida milliy kiyimlar, xalq marosimlari, bozor hayoti va turli mehnat jarayonlari tasvirlangan bo‘lib, bu tasvirlar etnografik ma’lumotlar uchun muhim manba hisoblanadi. Shunday qilib, rassomlar ijodida etnografik mavzuning rivojlanishi xalq madaniy merosini badiiy vositalar orqali ifodalash jarayoni bilan chambarchas bog‘liqdir. Tasviriy san’at asarlarida aks etgan etnografik materiallar xalqning tarixiy xotirasini saqlash, milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish hamda ularni ilmiy jihatdan o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, tasviriy san’at asarlarida etnografik mavzularning aks etishi xalqning tarixiy xotirasi, urf-odatlarini va an’analarini badiiy shaklda ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Rassomlar o‘z asarlari orqali turli xalqlarning turmush tarzi, milliy kiyimlari, marosimlari hamda kundalik hayotiga oid jihatlarni tasvirlab, etnografik ma’lumotlarni san’at vositalari orqali saqlab qolishga



xizmat qiladilar. Shu jihatdan bunday asarlar nafaqat estetik qiymatga ega, balki tarixiy va ilmiy manba sifatida ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tasviriy san’atda etnografik mavzularning rivojlanishi, ayniqsa, milliy madaniyatni o’rganish va targ’ib qilishda muhim rol o’ynaydi. Rassomlar xalq hayotining turli jihatlarini tasvirlash orqali milliy qadriyatlarni keng jamoatchilikka yetkazadi hamda ularni kelajak avlodlar uchun saqlab qolishga hissa qo’shadi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo va Qoraqalpoq rassomlari ijodida etnografik mavzularning keng yoritilishi hududning boy madaniy merosini ko’rsatib berishga xizmat qiladi. Qoraqalpoq rassomlari ijodidagi etnografik mavzular xalqning tarixiy xotirasi, milliy an’analari va turmush tarzini badiiy shaklda saqlab qolishda muhim ahamiyatga ega. Tasviriy san’at asarlari orqali nafaqat estetik qadriyatlar, balki xalqning ijtimoiy hayoti, urf-odatlar va madaniy merosi ham o’z ifodasini topadi. Shu sababli bunday asarlar etnografiya, tarix va san’atshunoslik sohalari uchun muhim ilmiy manba sifatida qaraladi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Azimova D. O‘zbekiston tasviriy san’ati tarixi. – Toshkent: San’at, 2007.
2. Abdullayev N. San’at tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2001.
3. Pugachenkova G. A., Rempel L. I. История искусств Узбекистана. – Москва: Искусство, 1965.
4. Azimova D. O‘zbekiston amaliy san’ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2012.
5. Tolstov S. P. Древний Хорезм. – Москва: Издательство АН СССР, 1948.
6. Igor Savitsky. *State Museum of Arts of the Republic of Karakalpakstan*. Nukus: Museum Publication, 1998.
7. Marat Nurmukhamedov. *Karakalpak Art*. Nukus: Karakalpakstan Publishing House, 1986.
8. Alexander Volkov. *Art of Soviet Central Asia*. Moscow: Iskusstvo Publishing, 1974.
9. Ural Tansykbayev. *Selected Works*. Tashkent: Gafur Ghulom Publishing House, 1982.